

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH INSTITUTI

ARXITEKTURA FAKULTETI

«Landshaft dizayni va interyer» kafedrası

5150900 – «Dizayn» yo'nalishi bo'yicha

bakalavr bitiruv malakaviy ishining

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu: Toshkent shaxrida qariyalar va yetim bolalar uchun
ixtisoslashtirilgan yangi bino turining
arxitekturaviy dizayn yechimi.

Bitiruvchi: Qosimov Ulug'bek Ortig'ali o'g'li
(F.I.SH.)

(imzo)

Rahbar: kat.o'q Baxayeva Umida Maratovna
(F.I.SH.)

(imzo)

Toshkent – 2018

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH INSTITUTI

Arxitektura fakulteti Dizayn 5150900 yo'nalishi

6-14 Du guruhi

«TASDIQLAYMAN»
«Landshaft dizayni va interyer»
kafedrasi mudiri Matniyazov Z.E

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha

T O P S H I R I Q

BITIRUVCHI: Qosimov Ulug'bek Ortiqali o'g'li

(F.I.SH.)

1.Bitiruv malakaviy ishi (BMI) mavzusi: Toshkent shaxrida qariyalar va yetim bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yangi bino turining arxitekturaviy dizayn yechimi.

«___» _____ yildagi № ____ buyruq bilan tasdiqlangan

2. BMI loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar

3.Tushuntirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

a) Arxitektura qismi: Toshkent shaxrida qariyalar va yetim bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yangi binoning dizayn yechimi.

b) Badiiy-dizayn qismi: Toshkent shaxrida qariyalar va yetim bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yangi binoning badiiy yechimi va interyeri.

d) Atrof- muhit ekologiyasi qismi: kutubxonaning atrof - muhit va ekologiyaga ta'siri kutubxonaning ekologiyasi.

e) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati: _____

4. Grafik material ro'yxati (majburiy chizmalar va masshtab ko'rsatilishi bilan) _____

5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha konsultantlar

№	Diplom loyihasi qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi
1.	Arxitektura				
2.	Badiiy-dizayn				
3.	Atrof muhit ekologiyasi				

Topshiriq berilgan sana _____

BMI loyihasini topshirish _____

Bitiruvchi _____

(F.I.SH.)

(imzo,)

Rahbar asistenti assis. Ikromov Sh.R.

(F.I.SH.)

(imzo)

Rahbar asistenti assis. Maxkamov J.S.

(F.I.SH.)

(imzo)

BMI loyihasi rahbari katta.o'q. Baxayeva U.M.

(F.I.SH.)

(imzo)

Kafedra mudiri dots Matniyazov Z.E.

(F.I.SH.)

(imzo)

M U N D A R E J A

1. KIRISH.....
2. Arxitektura bo'limi.....
3. Badiiy dizayn bo'limi.....
4. Atrof muhit ekologiyasi bo'limi.....
5. Xulosa.....
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....
7. Ilova.....

Kirish

"Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash-
odamiylikning eng oliy me'zonidir"

Shavkat Mirziyoyev

Oila qadriyatlari birinchi o'rinda turadigan O'zbekistonda azaldan oila va jamiyatda keksalarni e'zozlash va ularga g'amxo'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor berilgan. Shu bilan birga, oilasiz yolg'iz yashayotgan hamda o'zgaralar parvarishiga muhtoj qariyalarga ham davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Aytish joizki, 2014 yildan boshlab Mehnat vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda mamlakatda yolg'iz keksalarga va nogironlarga professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish" loyihasini amalga oshirib kelmoqda. Ushbu loyiha ko'magida "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 avgustdagi 237-sonli "Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Yangi tizimning kiritilishi ijtimoiy yordamga muhtoj insonlar va ularning oilalarini izlab topish, ro'yhatga olish va himoya qilish tizimini mukamallashtirdi. Xususan, 2016 yil mobaynida faqatgina Toshkent viloyatining o'zida 200 dan ortiq yolg'iz keksa yoshdagi fuqarolar ijtimoiy himoyaga olingan. Butun respublika bo'yicha 17 mingdan ortiq yolg'iz keksalar va nogironlar ijtimoiy xizmatlardan foydalanishyapti. Ularning har biriga uy yumushlariga yordam berish, sog'liqni tiklash, rehabilitatsiya qilish hamda yolg'iz va yakka yashaydigan keksalarni ijtimoiy hayotga faol qatnashishga ko'maklashishni o'z ichiga oladigan individual ijtimoiy xizmatlar dasturi ishlab chiqiladi va joriy qilinadi. Buday dasturlarni bajarish turli hil tashkilotlarni, mahalliy hokimiyat va mahalla faollarini jalb etilgan holda amalga oshiriladi. Loyihaning yana bir faoliyati shu jarayonda qatnashayotgan tashkilotlarga aniq yo'riqnomalarni ishlab

chiqishdan iborat bo'lgan. Mazkur hujjatga muvofiq, o'zgaralar yordamiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironlarni izlash va ularning hayot darajasini baholash tizimi ishga tushirildi. Tadbirlar mahalliy boshqaruv organlari, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimi xodimalri tomonidan muntazam (har chorakda 1 marta) uyma-uy aylanib yurish orqali amalga oshiriladi. Loyihaning natijalarini davomiyligini ta'minlash uchun harakatlar qilindi. Yolgiz keksa va nogironlarga g'amho'rliq qilish va ehtiyojlarini qondirish 2016-2020 BMTning O'zbekistonga ko'mak dasturiga va Barqaror Taraqqiyot Maqsadlar tarkibiga kirgan. Nogiron va keksa insonlarni ijtimoiy hayotga jalb etish barqaror va adolatli jamiyatni shakllantirishning shartlariga kiradi. BMT Taraqqiyot dasturi barcha jabhalarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tizimini shakllantirishda ko'mak beradi. Keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i. I.t. to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjetidgn ajratiladigan mablag'lari, homiylar (turli jamg'arma va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar) mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. I.t. miqdori va taqdim etish tartibi milliy urf-odatlar va xalqaro me'yorlarga asosan ishlab chiqilgan qonunchilik hamda davlatning iqtisodiy imkoniyati doirasida amalga oshiriladi. Pensiyalar (keksalik bo'yicha, nogironlik bo'yicha, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha va ijtimoiy nafaqap&o' (nogiron bolalarga, bolalikdan nogironlarga, ishlamagan yolg'iz nogiron va keksalarga) to'lovlari I.t.ning eng muhim turlari hisoblanadi. Qari-yalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish — nogironlarni "Mu-ruvvat" uylariga, yolg'iz qariyalarni "Sahovat" uylariga joylashtirish, muhtojlarni protezortopediya va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash, nogiron bolalarni kasbga o'qitish va ishga joylashishda yordam ko'rsatish, pensionerlarni sanatoriy va dam olish uylarida sog'lomlashtirish, ularga shahar jamoa transportlaridan foydalanishda, turar joy, maishiy xizmat va soliklarga aloqador imtiyozlar berish I.t.da katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda I.t.

tizimi 20-a.ning 20- y.lari boshidan shakllana boshlangan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng 90-y.lar boshidan bozor munosabatlariga o'tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini, ayniqsa no-chor guruxlarni aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi, pensiya jamg'armasi, ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar va nafaqalar indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar amal qila boshladi. Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi ham bu borada istisno bo'lmadi. Unda alohida bo'lim davlatning yoshlar siyosatini takomillashtirishga bag'ishlangan. O'zbekiston o'zining boy-tarixi, yuksak madaniyati, ma'naviy va madaniy merosi bilan dunyo davlatlari orasida o'z o'rniga va mavqeyiga ega. Biz yosh avlod bular bilan nafaqat faxrlanishimiz balki shunday yuksak merosni yaratgan ota-bobolarimizdan o'rnak olgan holda vatanimiz rivoji uchun hissa qo'shishimiz zarur. Zero Prezidentimiz SH Mirziyoyev shunday deganlar "Yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb hunarlarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurma hissini yuksaltirish, farzandlarimizning qalbi ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir". Men TAQI bitiruvchisi Qosimov Ulug'bek Ortiqali o'g'li diplom himoya mavzuimizni yoritib berishga asoslangan ma'ruzamizda so'z boshi me'morlik asli qanday vujudga kelgan va qanday vazifalarni bajarish to'g'risida qisqacha ma'lumot berishdandir.

2017 - yil „Xalq bilan muloqat va inson ma'nfaatlari yili“ bo'lgani sababli insonlar hayotida qulaylik, shart-sharoitlarini yaratishga oid turli tadbirlar bo'lib o'tmoqda. Shu jumladan Arxetektura yo'nalishida ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Abdug'aniyevich ko'plab ishlar bajardilar. Bu islohatlar hozirda ham amalda bajarilmoqda. Hozirda prezidentimiz Shavkat Miromonovich

Mirziyayev Arxitektura yo'nalishida yangicha tarmoqlarni yaratishga imkoniyatlar bermoqdalar.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyayevning yangi qarori ishlab chiqildi va amalda tatbiq qilinmoqda. Yangi qaror, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Shavkat Mirziyoyev 2 may kuni "O'zbekiston Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Yangi qaror, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyati tubdan takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan. © UZBEKISTAN TODAY Toshkent arxitektura qurilish instituti yangi binoga ko'chiriladi Qarorda, xususan, quyidagilar tasdiqlangan: O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tarkibi va tuzilmalarining o'zaro ishlash tartibi, qo'mita markaziy apparatining yangi tarkibi; O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi huzuridagi Davlat arxitektura va qurilish inspeksiyasi tarkibi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tarkibi, Toshkent shahri hamda viloyat va tumanlardagi Davlat arxitektura va qurilish boshqarmalarining namunaviy tuzilmalari; O'zbekiston Respublikasida arxitektura va qurilishni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlardir.

Shu sababli men Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi mavjud yerga "Toshkent shaxrida qariyalar va yetim bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yangi bino turining arxitekturaviy dizayn yechimi "ni diplom himoya mavzusi qilib, tanladim. Bu vazifa murakkabroq va hududi jihatidan katta Shu sababli loyiha ichiga shifoxona va turar joy binosi hududini kiritdim. Shu bilan birga qulay, ko'rkam, barcha talablarga javob beradigan holda bajarishga harakat qildik. Uyerda davolanayotgan bolalar kasalxona emas balki o'z uylaridagidek his qilishlari uchun binoni va hududni bolalarga hos va yangicha ko'rinishda harakat

qildik. Bu ishni amalga oshirishda to'rt yil ichida olgan bilimlarimiz bizga ko'mak bo'lib xizmat qildi.

ARXITEKTURA

BO'LIMI

Konsultant: Yusufxo'jayev S.A

Bitiruvchi: Qosimov U O


Qurilish tumaning tasniflari

Qurilish hududi	Toshkentshahri
Iqlimi	Keskin kontinental
Yer osti suvlari	9,0 m. Chuqurlikda joylashgan
Maydonnig zilzilabardoshligi	9ball
Qor qatlami	50 kg/m ²
Shamol bosimi tezligi	38 kg/m ²
Gruntlar	Sochiluvchan (насыпные)
Quvvati	0,5-0,6 m
Gruntning yuk ko'tarish qobiliyati	R = gr 0,25 Mpa
Cho'kuvchanliksharoitibo'yichagruntningturiqumliloy I-kategoriya (лессовидные суглинки)	
Fizikimexanikxossalariko'rsatkichlari – zichlik	$\gamma = 1,65 \text{ t/m}^3$
Ichki ishqalanish burchagi	$\varphi = 29^\circ$
Boshlang'ich o'ta cho'kish	0,20 MPa
Zamin gruntlari	Agressiv emas
Ishonchlilik koeffitsienti	$\gamma = 0,95$
Binoning olvga bardoshliligi darajasi	II
Binoning javobgarlik darajasi	II
Binoning iqlimiy zonasi	II

BOSH TARX

Qariyalar va yetim bolalar kompleksi Uchtepa tumaniga tegishli bo'sh va tekis yeriga qurishga taklif kiritmoqdamiz. Quyida qurilishi rejalashtirilayot joyning bosh tarxdan ko'rinishi ko'rishimiz mumkin.

1-rasm.



Bosh tarx

Bino asosi temir beton konstruksiyadan iborat. KMK2.03.01-96 Beton va temirbeton konstruksiyalar bo'limidan foydalanildi. U kvadrat shakliga yaqin bo'lib, tizim markazida diametric 14 metrni tashkil qiluvchi aylana o'qi bo'yicha kolonnalar tizimini hosil qilamiz. Kolonnalar o'qlari orasidagi masofa 6 metrni, kolonnaning o'zi bo'yi va eni 450 mm tashkil etadi. Podval va ikkita qavatni tashkil qiladigan binoning ichiga ikkita tarafdin asosiy kirish va 2 ta qo'shimcha kirish mavjud. Birinchi qavatning balandligi 4500 m tashkil qiladi undan. ikkinchi qavatga 2ta lift va zina orqali ko'tarilishimiz mumkin bo'ladi.

1. KMK 2-08. 02-09. “Jamoat binolari va inshootlari”
2. KMK 2-03. 10-95. “Tomlar va tomqoplamalar”
3. KMK 2.01.03-96. “Zilzilaviy hududlarda qurilish”
4. KMK 2. 07. 01-94 “Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy,geologik ma'lumotlar”

KONSTRUKTIV YECHIMI

Har bir loyihalanayotgan bino konstruktiv yechimga ega bo'lishi kerak. Bino mustahkamligi va chidamliligi konstruktiv yechimga bog'liq. Bino konstruksiyasiga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

1. Funksional talab – bino qaysi jarayonga mo'ljallangan bo'lsa, shu jarayonning talablariga to'la javob berishi kerak;

1. Texnik talablar – mustahkamlik talablariga to'la javob berishi kerak. bunda loyihaning to'g'ri tanlangani, atmosfera ta'siriga chidamliligi va seysmik talabga to'liq javob berishi kerak;

2. Arxitekturaviy-badiiy talab – binoning ichki va tashqi ko'rinishi barcha talabga javob berishi kerak.

Binoning konstruktiv elementlari:poydevor, devor, zinalar, parda devorlar, eshik va derazalar, ustunlar va h.k. “Sog'lomlashtirish markazi” loyihasi taklif qilinayotgan hudud, eng avvalo, konstruktiv jihatdan o'rganib chiqildi.

1. Qurilish hududi – Toshkent shahri
2. Iqlimi – sub kontinental
3. Hududning zilzila bardoshligi –7- 8 ball

Bino konstruktiv jihatdan mustahkamlik darajasi bo'yicha karkasli va temir betondan bo'lsa, to'liq ravishda talabga javob beradi. Sog'lomlashtirish markazi binosida ham karkasli, ham temir beton konstruksiyasidan foydalanildi. Sog'lomlashtirish markazi loyihasini konstruksiyalashda KMK me'yoriy hujjatlar

talablarini hisobga olgan holda rejalashtirildi. Eng avvalo, asos grunti o'rganib chiqildi, geodezik olimlar tomonidan hudud ko'rib chiqildi. Asos tuprog'i laboratoriyada o'rganiladi. Zamin gruntining yuk ko'taruvchanligi, seysmik jihatdan mustahkamligi hisoblandi.

POYDEVOR

Poydevorlar – yer osti konstruksiyalari bo'lib, o'zidan yuqorida turgan konstruksiyalar og'irliklarini qabul qilib, gruntlarga uzatib beruvchi konstruksiyalardir. Poydevorga yuqoridan devor va ustunlarning xususiy og'irligi, pastdan esa zaminning teskari bosimi ta'sir etadi.

Inshoot zamini deganda yuqoridan tushayotgan yukni qabul qiladigan hamda shu yuk ta'sirida kuchlanish va deformatsiya holatida bo'ladigan grunt massasi tushuniladi. Zamin qancha kam va tekis deformatsiyalansa, uning qurilish sifatleri shuncha yuqori bo'ladi; inshootda qo'shimcha kuchlanishlar shuncha kam hosil bo'ladi.

Inshoot va gruntga mos poydevor tanlash loyihalashtirishning muhim masalalaridan biridir. Zamin va poydevorlarning bir necha variantini texnik iqtisodiy analiz qilish yo'li bilan uning ishchi varianti qabul qilinadi. Poydevorlar yetarli darajada mustahkam, puxta, sovuqqa va yer osti suvlarining agressiv ta'siriga chidamli bo'lishi kerak. Poydevorlarning tarxdagi o'lchamlari shunday olinishi kerakki, yuqoridan tushayotgan hisobiy yuklar ta'sirida poydevor ostki sirtida hosil bo'ladigan o'rtacha bosim, gruntga beriladigan bosimdan ortib ketmasin; poydevorning cho'kishi normada ko'rsatilgan darajada bo'lishi kerak.

Har qanday poydevor loyihasida ikkita xarakterli tekislik bo'ladi, inshoot tayanuvchi ustki sirt (ustki tekislik) hamda grunt bilan tutashib turuvchi ostki sirt (ostki tekislik). Poydevorlar chuqurligi, yuk ta'sirida ishlash xarakteri, konstruktiv shakli, materiali, vazifasi hamda ishlanish uslubiga ko'ra bir necha turlarga

bo`linadi. Chuqurligiga ko`ra sayoz va chuqur poydevorlar bo`ladi. Loyiha shakliga ko`ra alohida, yaxlit lentasimon, massiv, aralash va qoziqli poydevorlar bo`ladi.

Poydevor yer osti qismiga bog`langan bo`lib, u barcha tushadigan og`irlikni qabul qilib, asosga uzatadi. Asos esa yerga tarqatadi. Poydevor ostida joylashib, binoning og`irligini o`ziga qabul qiluvchi tuproqning massasiga asos deb ataladi. Asoslar 2 xil bo`ladi: tabiiy asos va sun`iy asos. Bu loyiha ishi tabiiy asosga egadir. Tabiiy asos deb, qurilgan binoning og`irligini o`zining tabiiy holatida ko`tarib tura olishi mumkin bo`lgan poydevor osti tuprog`iga aytiladi.

Loyihaningning poydevori lentasimon iborat bo`lib, o`ta mustahkam.

Asosiy konstruksiya temir-beton karkas va g`ishtdan. Temir beton konstruksiyasi ichki chizmalarga asosan qilingan. Eng yuqori binosi yerto`la qavati bilan 3 qavatni tashkil etib, har bir qavat deformatsiya choklari bilan bo`lingan. Binoning yuk ko`taruvchi ustunlari (kollona) monolitaylana shaklida $r = 200$ mm temir-betondan loyihalangan.

Bino poydevori yuk ko`taruvchi g`ishtli devor tagida B20 (M250) sinfiga oid portlandsementda tayyorlangan o`zaro kesishgan monolit temir-beton lentasimon, ustunlar osti esa ustunsimon qilib loyihalangan. Rigellar (ustunlar) monolit temir-betondan tayyorlangan.

Qavatlar ora yopmalar – binoning asosiy konstruktiv elementi bo`lib, uni balandligi bo`yicha qavatlarga ajratib turadi. Qavatlar aro yopmalarga qo`yiladigan talablar:

1. Mustahkamlik;
2. Doimiy va vaqtinchalik yuklar ta`siriga chidamlilik;
3. Tovush o`tkazmaslik;
4. Suv va bug`lar o`tkazmaslik;
5. O`tga chidamlilik va boshqa talablar.

Loyihaning pastki qismida yerto'la mavjud. Yer to'la poldan balandligi – 3.30 m ni, birinchi va ikkinchi qavat poldan balandligi 4.50mtashkil etadi. Har bir qavat orasida qavatlar ora yopmalardan foydalanilgan. Sog'lomlashtirish markazining qavatlardagi ora yopmalar uzunligi 5860mm, eni 1200mm, balandligi 220mm (M2TIIK59-12-8A400B-c9), uzunligi 5860mm, eni 1000mm, balandligi 220mm (M2TIIK59-10-8A400B-c9) plitadan, binoning zina atrofQurilish maydonida quyilgan temir-betonlardan monolit usulda o'rnatiladi.

Devorlar binoning asosiy konstruktiv elementi bo'lib, ular tashqi muhitdan himoyalashdan tashqari o'ziga tushadigan yukni qabul qilib poydevorga uzatuvchi qurilma hisoblanadi. Tashqi devorga qo'yiladigan talablar: qor va yog'ingarchilik ta'siriga chidamliligi, shamol tezligiga ta'siri, quyosh radiatsiyaga bardoshliligi, temperature ta'siri, seysmik ta'sir va boshqalar. Devorlar asosan materialiga qarab paxsadan, g'ishtdan, yog'ochdan, betondan tayyorlanadi. Devorlar 3 turga bo'linadi: yuk ko'taruvchi, o'zini- o'zi ko'tarib turuvchi va osma devorlar. Ushbu loyiha binosida asosan o'zini- o'zi ko'tarib turuvchi devor qo'llanilgan.

Tashqi devorlarni loyihalayotganda iqlimdan kelib chiqib, deformatsiya choklari qo'yiladi. Deformatsiya choklari ham 3 turga bo'linadi: temperature, cho'kish va zilzilaga qarshi choklar. Loyihalangan bino tashqi devorlarida temperatura choki qo'yilgan bo'lib, bu chok qalinligi 25 mm qilib olingan. Chok poydevorgacha keladi va harorat o'zgarganda devordagi turli xil yoriqlar oldini olish uchun qo'llanilgan. Juda kop qismida tashqi devorlar sifatida qalinligi 6 mm li ikki qavatli, polgacha bo'lga vitraj oynalardan foydalanilgan.

Ichki devorlar ham bir qator vazifalarni bajaradi. Xonalarni ajratish bilan birga tovush o'tkazmaslik ham muhim vazifa. Ichki devorlar bir qatlamli qilib ishlangan bo'lib, devor qalinligi 250, 120, 400 mm qilib olingan.

POL VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMI

Bino loyihalalanayotganda pol va ularning konstruktiv yechimi ham ko'rib chiqilgan. Pollar to'g'ridan -to'g'ri ora yopmalar ustidan, podvalsiz binolarimizda esa to'g'ridan- to'g'ri grunt ustidan pollar tayyorlanadi. Pollarning yuzasi qoplama yoki haqiqiy pol deyiladi. Pollarning turlari ham ko'p: yog'och taxtali pollar, lenolium pollar, keramik pollar, mozaykali pollar va boshqalar.

Loyihada to'g'ridan -to'g'ri ora yopmalar ustidan pollar tayyorlangan bo'lib parketlardan foydalanilgan. Devor konstruksiyasi bilan birikkan joyida esa plintuslar ishlatiladi.

ZINALAR

Zinalar qavatlar orasidagi aloqani amalga oshirishga hizmat qiluvchi asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalardandir. Bundan tashqari zinalar tabiiy ofat, yong'in va avariya vaqtida kishilarni binodan tez evakuatsiya qilish hizmatini bajarishi kerak. Zinalar vazifasiga qarab quyidagi hillarga bo'linadi:

1. Asosiy va yordamchi zinalar, qavatlar orasida kishilarning kundalik ommaviy qatnovi va binodan tashqariga chiqish uchun hizmat qiladigan zinalar.
2. Yordamchi zinalar – o't o'chirishda, avariya vaqtida foydalaniladigan, chordoqqa chiqish va yerto'laga tushish uchun hizmat qiladigan zinalar kiradi.

Zinalar qiya joylashgan marshlar, gorizantal supachalar va harakat xavfsizligini ta'minlovchi tutqichlardan iboratdir. Binodagi zinalarning soni, joylashishi, o'lchamlari, qabul qilingan binoning arxitektura – tarxiy yechimiga, qavatlar soniga odamlar harakati oqimining shiddatiga (intensivligiga) bevosita hisobga olingan. Bundan tashqari harakatida nuqsoni bor bolalar yuqoriga chiqishi uchun panduslardan foydalanilgan. Eni 0.9 m dan keng, uzunligi 1.5 m, har bir marshi 0.8 m, qiyaligi 1:12 ni tashkil etadi.

TOMLAR VA TOM QOPMALARI

Binoni ustki qismini tashqi muhitdan tomlar va tom yopma himoya qiladi. Tomlar shakli, nishablarining qanday qiyalikda bo'lishi, binoning tarxdagi o'lchamlariga va ko'rinishiga, tom yopmasining materialiga, suvni tushirish usuliga, iqlim sharoitiga, texnik-iqtisodiy sharoitlariga hamda bino arxitekturasiga oid mulohazalarga bog'liqdir. Tom va tom yopmalarning shakli bir nishabli va ikki nishabli bo'ladi. Shuningdek to'rt nishabli, gumbazsimon qubba, konussimon va boshqa xil tomlar ham bo'ladi.

Nishablarning bir-birini qiya holda kesib o'tishidan turtib chiqqan burchak qovurg'a (rebro) yoki ichkariga kirgan burchak yondova hosil qiladi. Bir tomning hamma nishablari, odatda, bir xil qiyalikda bo'lishi kerak.

Tom va tom yopmalarning shakli imkoniyat darajasida oddiy bo'lishi va imkon boricha yondovasiz bo'lishi kerak, chunki yondova tomning mustahkam qismi hisoblanadi va doimiy tekshirib, qarab turishni talab qiladi.

Tom va yopmalar tomlar nishablarining qiyaligi nishab qiyaligi bilan gorizont orasidagi uning gorizont holatiga nisbati bilan, ya'ni protsentlarda (%) yoki kasrlarda ifodalangan qiyalik burchagining tangensi bilan o'lchanadi.

Tom va yopma tomlar qiyaligiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

- qiyaligi 5 % va undan ortiq bo'lgan nishab tomlar;
- qiyaligi 0 dan 5 % gacha bo'lgan tekis tomlar.

Loyiha tom yopmasi qiyaligi 0 dan 5 % gacha bo'lgan tekis tomdir. Bino tom yopmasi, tom plitasi ustidan avval bir qavat rebiroid (bug'izolyatsiya uchun), 100mm keramzit,(issiqlik izolyatsiyasi uchun),uning ustidan tikkislash va qiyalikni hosil qilish uchun 20mm qalinlikda semet va qum qorishmasi,uch qavat poliizol(gidroizolyatsiya)dan iboratdir.

DERAZA VA ULARNING KONSTRUKTIV YECHIMI

Xona ichiga tabiiy yorug'lik devordagi vertikal – tomlardagi gorizont al joylashgan derazalar orqali tushadi. Derazalar qurilish normalariga asosan ishlab

chiqiladi. Deraza materiali yog'och, temir – beton, plastic va alyumindan bo'lishi mumkin. Derazalar ochilish usuliga qarab ham bir necha turlarga bo'linadi:

1. 1 tabaqali
2. 2 tabaqali
3. 3 tabaqali
4. Surilib ochiladigan
5. Tabaqalar yuqori va pastga ilingan
6. Jalyuzali

Xozirgi zamonaviy arxitekturada derazalardan o'zgacha usulda qo'llanilmoqda. Loyiha derazalari juda chiroyli ishlangan. Materiali plastikdan bo'lib, o'zgacha shakl berilgan. Har bir xonaga kerakli miqdorda tabiiy yorug'lik tushishi hisobga olingan.

BADIIY-DIZAYN

BO'LIMI

Mas'ul rahbar: kat.o'q. Baxayeva U.M. _____

Bitiruvchi: Qosimov U.O. _____

Badiiy yechimi

Loyihaning eng muhim qismlaridan biri bu albatta badiiy qism, ya'ni loyiha kompozitsion yechimi, arxitektura obyektlarining tashqi dizayni, atrofning landshaft dizayni, bino xonalarining interyer yechimlari va art obyektlar hisoblanadi.

Loyiha interyer yechimini boshlashdan oldin ushbu mavzu yuzasidan ma'lumotlar to'plandi, qariyalar va yetim bolalar uchun ixtisoslashtirilgan yangi bino turi to'g'risida umumiy tushuncha hosil qilindi.

Mehribonlik uylari - yetim va otaonalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalar uchun davlat tomonidan ochilgan ta'lim tarbiya muassasasi. Yetim yoki qonuniy vasiylar qaramog'ida bo'lmagan bolalar, ota-onalari sud hukmi bilan otaonalik huquqidan mahrum qilingan, otaonalari voz kechgan bolalar uchun tashkil qilingan. Mehribonlik uylarida 3 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan sog'lom bolalar yashashi va tarbiyalanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarni o'qitish va boqish to'la davlat ta'minoti asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Mehribonlik uylari 3—7 yoshli bolalar uchun bolalar botasi tartibida, 7—16 yoshli bolalar uchun umumiy o'rta ta'lim maktabi tartibida ishlaydi hamda maktab ta'limtarbiyaviy dasturiga muvofiq ish olib boradi. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning maktab o'quv dasturini to'liq o'zlashtirishlari, ularning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash, jismoniy kamol topishlari, axloqiy hamda estetik tarbiya olgan barkamol shaxslar bo'lib yetishishlari ta'minlanadi. Shuningdek, yuqoridagi maqsadlarga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar olib boriladi. Mehribonlik uylari O'zbekistonda dastlab 1918 yil yetimxonalar asosida bolalar uyi nomi bilan tashkil etilgan. 2-jahon urushi yillarida jangchilarning bolalari uchun maxsus bolalar uylari ochilib, ularda Ukraina, Belorussiya, Litva, Latviya, Estoniya, Moskva,

Leningrad va boshqa shaharlardan keltirilgan bolalar tarbiyalandi. Mustaqillik yillarida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Bolalar uylari" Mehribonlik uylari deb nomlana boshlandi. 2002 yil O'zbekistonda 27 Mehribonlik uylari ishladi, ularda 3650 bola tarbiyalandi.

Katta hammomlarda foydalanish uchun hech qanday muammo kelib chiqarmaydigan, uskunalarning, mebellarning to'g'ri joylashganligi, harakatlanish erkinligiga ega bo'lishi, qurilma 3-4 kishiga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Mobil tizimlar keng xonalarda o'zlarini yaxshi ko'rsatishadi, lekin odatda odamlar ko'proq dumaloq turga tayanadi va bu qat'iy tarzda devorga va qavatga o'rnatiladi, shu sababli uni xavfsiz tarzda o'rab olish mumkin. Barmoqlar uchun maqbul diametr 4-5 smni tashkil etadi, bu ikkala jinsdagi nogiron kishilarga, shu jumladan, bolalar uchun mosdir. Odatda bu parametrdan pol qoplamasi 70-100 sm bo'ladi. Agar oilada harakatlanish cheklangan bolasi bor bo'lsa, u qiymat o'zgarishi mumkin, ammo har doim ham foydalanganda qulay bo'lishi kerak. Ushbu tuzilmalarni tashkil etishning asosiy nuqtasi nogiron kishining nogironlar aravachasidan osongina san-uzelga borib, orqaga qarab harakatlanishiga imkon yaratadi.

Buning uchun qurilma devorga juda yaqin joylashtirilmasligi kerak. Qo'llar idishning har ikki tomoniga joylashtiriladi. Ular orasida devor 5-6 sm bo'sh joy qoldiradi. Agar qurilma burchakda o'rnatilsa, bu qoida yon tomonidagi taglikka gorizontal holatida o'rnatiladi. Ikkinchi dafn uzoq devorga o'rnatiladi, u qatlam yoki tortilishi mumkin. Eng muhimi shundaki, u harakatlar paytida aralashmaydi va drenaj tugmasiga erkin kirish imkonini beradi. Hammom alohida bo'lsa, hojatxonaning yonida kichik bir lavabo qo'yish yaxshidir. Keyin nogiron qo'llarini yuvish uchun hammomga o'tishga hojat yo'q. Muvofiqligi cheklangan kishilar uchun elementar kundalik protsedura juda murakkabroq. Agar u etarli vaqt oraligida vertikal holatda bo'lishi mumkin bo'lsa, lavanda oldida yon tomonlarga ikkita yordam kerak bo'ladi. Nogironlar uchun, kim o'tirishni hisobga olib, kichkina stul jihozdan foydalaniladi.

Kirishning eshigi bor bo'lsa, tashuvchining to'siqsiz o'tishi uchun uni olib tashlash yaxshiroqdir. Ochilish keng bo'lib, eshik tashqariga chiqishi kerak, magnitlangan bo'lishi kerak, bu o'z-o'zidan tushib ketishdan saqlaydi. Zamin har doim quruq bo'lishi kerak, shuning uchun hammom uchun parda kerak. Ta'kidlash kerakki, harakatlanuvchi tuzilmalar sirt vakuum elementlari bilan jihozlangan bo'lsa, bunday uskunaning barcha detallari komplektga kiritilishi kerak. Ammo ular bolalar uchun ko'proq mos keladi, chunki ular 60 kg dan ortiq bo'lmagan yukni bartaraf etishlari mumkin. Eng mashhur modellar zanglamaydigan po'latdan yasalgan. Materiallar juda silliq bo'lganligi sababli, antibakterial emdirish bilan maxsus namlikka chidamli neylon bilan qoplangan. Nozik teriga ega bo'lgan nogironlar uchun gofrirovka qilingan yuzalar bilan mos kelmaydi. Bundan tashqari, tirnoqlar: tabiiy yog'ochdan; og'ir plastmassadan tayyorlangan. To'g'ri variantni tanlashda siz aksessuarlaringizni ichki qismlar bilan birlashtira olasiz. Polivinilxloriddan tayyorlangan ushlagichlar juda ko'p rangda ishlab chiqariladi.

Psixologik jihatdan ishonch yanada katlanishda va o'girishda emas, balki devorda qat'iy ravishda o'rnatiluvchi yoki ushlab turadigan statsionar tayyoqchalar bilan bog'liq. Ular nogironlarga ishonchlilik, xavfsizlik va har qanday yo'nalishda qo'rqmasdan tayanish qobiliyatini his etishadi.

Dizayn funktsiyalariga bog'liq ravishda bir necha asosiy variantlar mavjud: Maxsus lift Bu variant, inson xarakat-tayanch apparati buzilishi muhim bo'lgan hollarda ishlatiladi;

Ishlab chiqarish materiallari barcha sanitariya talablariga javob berishi va bunga sabab bo'lmasligi kerak allergik reaksiyalar odamlarda. Bu yuzasi chaqa qarshilik, agressiv ta'sirlarga qarshilik, korozyon qarshilik sifatida hisob kabi omillar hisobga olish kerak bo'ladi. eng oson yo'li dizayn, bu mamlakatda belgilangan barcha me'yoriy talablarga javob haqida hujjatlarni ko'rsatishga sotuvchiga so'rash;

Dizayn, odamning bu joyga joylashishi uchun qulay bo'lishi kerak. Ya'ni, siz eng yaxshi variantni tanlash uchun, hisobga o'sishini, teriga va boshqa antropometrik parametrlarini qilish kerak. Bundan tashqari, men tizimining kuch e'tibor uchun maslahat, buyum parchalagan bo'lsa, chunki, bu, og'ir yuklarni dosh kerak, va hech kim nogiron odamlar bir necha soat davomida qavatda yolg'on mumkin, uyda bo'ladi;

Elementlarga g'amxo'rlik imkon qadar sodda bo'lishi kerak. Ya'ni, barcha yuzalar namlikni va axloqsizlik shimib kerak emas, u uchun tez va aniq, shimgichni yoki latta bilan ularni yuvib beradi. Tozalash juda tez-tez amalga oshirilishi kerak, chunki bu jihat juda muhim ahamiyatga ega.

Ba'zan temir o'rnatish, ularni ishlatish emas keltirganlar uchun juda ko'p shovqin yaratadi vaziyatni o'g'irsa, chunki Albatta, biz, uyda yashaydi har bir inshooti maksimal qurilishiga, nogiron shaxs tomonidan ishlatiladi Buxgalteriya tuzilmalari, avtomobil, dan hisob ko'plab boshqa taraflama olish kerak. Vakolatli banyolar jihozlari nogiron insonni mustaqil ravishda foydalanishga imkon beradi. Nogironlik bo'yicha barcha zaruriy ishlarni o'z-o'zidan amalga oshirishi uchun qulay joyni ta'minlash juda muhimdir.

Interyer qismi ham eng avvalo qulayligi va did bilan bezalgani jihatdan ajralib turadi. Asosiy e'tiborimizni, nogironlar aravachasida harakatlanayotganda hech qaysi buyumga tegip ketmasligiga, qulay bo'lishiga va o'z uyidagidek his qilishiga qaratdik. Ranglarni bolalar psixologiyasidan kelib chiqib tanladik. Asosan yorqin va dam olish mumkin bo'lgan tinchlantiradigan ranglardan foydalandik. Ayniqsa yashash joyidagi xonalarni alohida standartlar asosida ishlab chiqdik. San-uzellarni yotoqonaga yaqin qilib joylashtirdik. Yo'laklar 2.5 m kenglikda olindi. Reabilitatsiya markazimizning kirish qismi foyedan boshlangan bo'lib, pollari aravacha qulash yurishi, sirg'anmasligi uchun matoviy kafeldan foydalanilgan. Bolalar zerikmasliklari uchun devorda turli multfilm qahramonlarini rasmlari tasvirlangan. Palatalarda har bir jihoz standartlar asosida qo'yilgan.

Men bu diplom ishimning interyer qismida qariyalar va bolalar uchun eng qulay va zamonaviy dizayinning yangi qirralarini ochib berishga harakat qildim. Diplom ishim, mehrga muxtoj qariyalar va bolalar salomatligiga, turmush tarziga va albatta ularning kelajagiga tasiri katta bo'lganligi sababli mendan juda katta masuliyatni talab qiladi. Shu sababli men bu katta ishni boshlashdan oldin qariyalar va mehribonlik uylariga borib ular bilan suxbat qilib ularni qiynayotgan muammolari bilan tanishib chiqdim. Shu sababli diplom ishimni interyer qismida iloji borich tabiiy mahsulotlardan foydalandim va ranglarini inson psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydiganlarini tanlashga harakat qildim. Qariyalar uchun mo'ljallangan binoda eng asosiy e'tiborimni harakatlanish har taraflama qulay bo'lishiga qaratdim. Yo'laklarda tayanch bo'lishi uchun ushlagichlardan foydalandim. Havo tozaligini har mahal tozalab turishi uchun juda ko'p gullardan foydalandim. Men o'ylaymanki men qurayotgan mehribonlik uyida istiqomat qilayotgan har bir shaxs o'zini boshqa insonlardan kam emasligini ruhan xis etib yashaydi.

Binoni tabiiy va sun'iy usulda yoritish

Yoritilganlik kishilarga ruhiy ta'sir otkazgani tufayli bino bezagida alohida o'rin tutadi. Binoni tabiiy yoritishga aloxida e'tibor qaratilgan. Keng tirqishlari binoga o'ziga xos ko'rinish berib, xonani kengaytirib ko'rsatadi va nurga to'ldiradi. Yangi qurilish materiallarining paydo bo'lishi quyosh nuridan faqat xonalarni yoritish uchungina emas, balki shu xonalarning ranglarga ta'siridan xam foydalanish imkonini beradi.

Binoni sun'iy yoritish uskunalari bino ichida va tashqarisida joylashtirilgan bo'lib, interyer va landshaftga bezak beruvchi elementlardan biridir.

Sun'iy yoritish afzalliklari quyidagilar:

a) Ob xavoga bog'liq emasligi:

b) Xonalardan kechki payt foydalanish imkoni;

Xonalarning funksiyasiga qarab sifati va soni bo'yicha yoritish uskunalari joylashtirish imkoni: Yorug'lik kuchi va imkonini boshqarish imkoni;

Bino tashqi devorlarida katta hajmdagi derazalarddan keng foydalanganmiz va tabiiy nurni maxsimal darajada ishlatamiz shu birga bino markazidagi atriumdan tushadigan nur bino ichki tarafidagi boshqa nur tushmaydigan xonalarni yoritishda yordam beradi. Tashqi oynalar uchun maxsus zararli nurlarni qaytaruvchi shishadan foydalanib u bemorlarning hayotiga hech qanday zararli ta'sir qilmay, xonaga yoyib yuboradi. Buning natijasida quyoshdan to'g'ridan - to'g'ri tushayotgan ultrafiolet nurlardan saqlaniladi.

XUDUDNING LANDSHAFT YECHIMI

Bino, uning atrofini, magistral fazosi dizayni bo'yicha tavsiyalarni, rejalash va jihozlashni ishlab chiqish, landshaft dizayni haqida umumiy tushunchalar va ularning vazifalari, bog' – park san'ati tarixi va asosiy yo'nalishlarning rivojlanishi, fazoviy muhitni ta'minlash masalalari bo'yicha, insonni predmet-fazoviy muhitni shakillantirishning uslub va vositalarini korsatib berish landshaft dizayning asosiy vazifasidir.

Loyihalashtiriladigan muhitni yil fasillari, kunning vaqti landshaft xususiyatlariga bog'liq bo'lgan boshqa o'zgaruvchanlikni hamda loyihada ko'rsatilmagan – suv shildirashi, gullarning hushbo'y hidi, fontandagi kamalak va uning ranglari va boshqalarni inobatga olish zarur.

Landshaft dizayni – faoliyatning alohida ko'rinishi bo'lib, tabiiy komponentlardan – relyef, suv, o'simliklar foydalanib insoniyatning hayot faoliyatiga sun'iy muhit yaratishdir.

Landshaft dizaynining asosiy maqsadi – insonga ochiq muhitni yoqimli qilib dilga hushnudlik, funksional, estetik va ekalogik hususiyatga egalik qilib yaratish, bunda estetik faktor asosiy o'rinni egallaydi.

Landshaft dizayni asarlari kompozitsiyada relief (geoplastik element sifatida), o'simlik, suv, havo (fazoviy va yer osti perspektivasi sifatida) asosiydir. Landshaft dizaynining asosiy kompozitsion elementlari ochiq muhit, o'simlik, qurilishlar, sharsharalar,, ranglarning turlichaligi, yorug'lik, soya havo va

perspektivaning paydo bo'lishidadir. Kuzatish orqali kelib chiqadigan his – hayajonlanish, landshaft dizaynining asarlarida ishlash – bosh bo'lishi, masshtab, uyg'unlik, kontrast kompozitsion faktorlardir.

Landshaft guruhi – daraxtlar va butalardan tuzilgan mustaqil kompazitsiya. Butasiman va darahsimon, aralash guruhlardan tashkil topadi. Bu guruh tarkibiga 2 – 3 tadan 10 – 12 tagacha bo'lgan o'simliklar kiradi. Guruh kontrastli yoki bir navli, zich yoki ikki tomoni ochiq bo'lishi mumkin.

Ushbu markaz binosining landshaft dizayni o'zining relyeflarga boyligi o'zgacha ko'rinish berib, tomosha qilish uchun kelgan kishilarni va sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.. Turli skameykalarni joylashtirib dam olish hududlarini tashkil qildik. Bu ham o'zgacha ko'rinish berib, manzarali bog' hosil qilishga yordam beradi.

Xududning landshaft yechimini loyihalalayotganda avval xuddud yaxshilab o'rganilib chiqilgan. Bino umumiy maydon o'rtasidagi joylashganligi sababli, binoning to'rt tarafidan xam landshaftiga aloxida etibor qaratilgan. Bino oldi kirish qismiga yerlariga gazon ekilgan. Landshaftini tugallik kasb etishi uchun har xil dekorativ gullar, o'simliklar, odamga estetik zavq va salqinlik ulashish maqsadida turli manzarali, mevali daraxtlar butalar o'tkazilgan.

Bunday ijodiy muhit hukmronlik qilayotgan maskanda u yerning nafasi bildirib turish maqsadida ijodkorlarning o'z qo'llari bilan yaratgan ijodiy na'munalari ham landshaftimiz ko'rkiga yanada chiroy berib turadi. Landshaftimizning tundagi ko'rinishiga har xil yoritgichlarning serjilo ranglari yordamida binoning ko'rinishiga yanada ko'rk qo'shib turadi. Bularning barchasi esa loyihalagan binoyimizga to'liq ma'noda tugallik baxsh etib turadi.

Yaqinlarimizga g'amxo'rlik qilish - bizning to'g'ridan-to'g'ri burchimizdir. Yodda tutingki, nogironlar oilasi har narsada ularga yordam berishidan rohatlanmaydi. Ular yuk bo'lishni xohlamaydilar. Shuning uchun, ularni hech bo'lmaganda qisman mustaqil his qilish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga harakat qildik.

ATROF MUHIT EKOLOGIYASI

BO'LIMI

Konsultant: Sattorov.Z

Bitiruvchi: Qosimov U O

Qurilish joylashgan hududning iqlimi.

Iqlimi kontinental, jazirama, quruq yoz kunlari hamda sovuq qish iqlimi bilan Shahar boshqa dunyo shaharlaridan ajralib turadi. Toshkent iqlimi kontinental, yillik o'rtacha temperaturada $13,3^{\circ}$, yanvarning o'rtacha temperaturasi $-1,1^{\circ}$, eng past t-ra -29° . Iyulning o'rtacha trasi $27,5^{\circ}$, eng yuqori t-ra 42° . Yiliga 360–390 mm yog'in yog'adi. Chirchiq daryosidan chiqarilgan va butun shahar bo'ylab o'tadigan Bo'zsuv, Salor, Anhor, Qorasuv, Oqqo'rg'on, Bo'rijar, Oktepa, Qoraqamish va boshqa kanallar uning mikroiklimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qurilish joylashgan hududning tabiiy atrof muhiti

Uchtepa tumani — Toshkentdagi ma'muriy-hududiy birlik. Maydoni 1.71 ming ga, shu jumladan, ko'kalamzorlashtirilgan maydoni 0,356 ming ga. Aholisi 123.9 ming kishidan ziyod. Ko'chalar soni 103 ta. Shundan 8 tasi asosiy ko'cha hisoblanadi. Qurilishi rejalashtirilgan binoning shimol tarafida ovqatlanish kafesi, janubiy va g'arbiy tarafda magistral transport yo'li, sharqiy tarafda esa ko'kalamzorlashtirilgan kichik bog' mavjud.

Biologik xilma-xilligi

Toshkent geobotanik jihatdan efemer va efemeroid o'simliklar bilan tavsiflanadigan adir mintaqasida joylashgan. Bu mintaqaga xos bo'lgan o'simliklar – rang, qo'ng'irbosh, qoqio't, mayinshivoq, qo'ypechak, mingbosh, karrak, qo'ziquloq, lolaqizg'aldog, chitir va boshqalar uchrab turadi. Shaharning o'simlik qoplami Asosini madaniy va manzarali o'simliklar tashkil etadi.

Manzarali daraxt va buta o'simliklaridan 200 xilga yaqini ma'lum, ko'p uchraydiganlar archa, akatsiya, zarang, qayrog'och, eman, chinor, manjuntol kabilardir, mevali daraxtlardan olma, nok, gilos, olcha, o'rik kabilar va boshqalar tarqalgan.

Hayvonot dunyosi. Shahar hududida 200 xilga yaqin umurtqali hayvonlar, shu jumladan, 24 sutemizuvchi, qushlarning 170 xili, sudralib yuruvchilarning 12 xili, amfibiyalarning 2 xili uchraydi.

Joylashgan hududning geologiyasi

Qurilish hududi	Toshkent shahri
Iqlimi	Keskin kontinental
Yer osti suvlari	9,0 m. Chuqurlikda joylashgan
Maydonnig zilzilabardoshligi	9 ball
Qor qatlami	50 kg/m ²
Shamol bosimi tezligi	38 kg/m ²
Gruntlar	Sochiluvchan (насыпные)
Quvvati	0,5-0,6 m
Gruntning yuk ko'tarish qobiliyati	R = gr 0,25 Mpa
Cho'kuvchanlik sharoiti bo'yicha	I-kategoriya
gruntning turi qumli loy (лессовидные суглинки)	
Fiziki mexanik xossalari ko'rsatkichlari $-\gamma = 1,65 \text{ t/m}^3$	
zichlik	
Ichki ishqalanish burchagi	$\varphi = 29^\circ$
Boshlang'ich o'ta cho'kish	0,20 MPa
Zamin gruntlari	Agressiv emas
Ishonchlilik koeffitsienti	$\gamma = 0,95$
Binoning olvga bardoshliligi	darajasi

	II
Binoning javobgarlik darajasi	II
Binoning iqlimiy zonasi	II

Toshkent o'zining geografik o'rniga ko'ra, bo'z tuproqlar zonasida joylashgan. Shaharning kata qismi chirchiqdaryosining 4 va 3- qayr usti terassalarida joylashgan qismi tipik bo'z tuproqlar bilan tafsiflanadi. Bu tuproq insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida kuchli o'zgargan. Antropogen yotqiziqlarining qalinligi haryerda har xil. Relyefga bog'liq holda 4-6 metrdan 10-12 metrgacha ayrim joylarda 20 metrgacha yetadi. Shaharning gidrografiya bir qator sun'iy kanallar va ariqlardan shakllangan ular shaharning sug'orish tizimini tashkil qiladi. Bo'zsuv, Quyi bo'zsuv, Kaykovus, Qoraqamish, Salar, Bo'rijar, Anhor, Qorasuv kabi yirik kanallarancha qadimgi hisoblanadi.

Shahar hududini kesib o'tgan kanal va ariqlarning aksariyati ham sug'orish uchun, ham qaytgan suvlarni, jala tarzida yoqqan yomg'ir yoki erigan qor suvlarini chiqib ketishiga xizmat qiladi.

Binoning qurilishida va loyihalashda ekologik talablar

Ekologik dizayn deganda joy va foydalanuvchilar joyining dizayni, iqlimi, yerning sathi va undagi punktlarning qay tarzda joylashganligi hamda mahalliy madaniyat hisobga olingan holda loyihalaniishi tushuniladi.

Turar joy va jamoat binolarining ekologik xavfsizligi insonning yashashi uchun har jihatdan qulay me'yorlangan sharoitlar va uning salomatligiga hamda

ekotizimlarning holatiga salbiy (shovqin, radiatsiya, tebranish va h.k) ta'sir etmasligi ta'minlanganligi bilan aniqlanadi.

So'ngi paytlarda qurilish ekologiyasining muhim yo'nalishlaridan biri, "inson – uy-joy muhitida yashaydi" tizimida ekologik har jihatdan qulay sharoitni yaratish bilan bog'liq savollarni ishlab chiqish bo'lib qolmoqda. Arxitektura va ekologiya ning birikishida, tabiiy atrof-muhit bilan sun'iy arxitektura obyektlarining o'zaro bog'lanishini o'rganuvchi yangi yo'nalish – arkologiya tug'iladi.

Arkologiya (ekologik me'morchilik) – me'morchilikning insonning ijtimoiy va ekologik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda "yovoyi tabiat"ni asrab qoluvchi turar joylarni barpo etish hamda ularni optimal ravishda sun'iy ekinzorlar va turli me'moriy shakllar bilan to'ldirish usullarini ishlab chiquvchi yo'nalishlaridan biridir. Arkologiya ning asosiy vazifasi – sog'lom ekologik "toza" uy-joyni shakllantirishdir.

Mutaxassislarning fikricha, ekologik toza va barqaror uy-joy muhitini shakllantirish bilan bog'liq muammolar nafaqat uy-joy qurilishi sohasidagi mutaxassislarning, balki ekologiklarning ham nazaridan chetda qolmoqda. Atrof – muhit holati va uy-joy sharoitlari o'rtasida uzluksiz bog'lanish mavjud. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining bayonoti bo'yicha "uy-joy atrof-muhit bilan birgalikda bog'langan binolarning keng majmualarini va kommunal qulayliklarni o'zida ifodalagan hamda ekologik omil, ya'ni aynan bir xil bo'lmagan uy-joy hisoblanadi".

O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab, yirik inshoot va ob'ektlarning loyihalari ekologik ekspertizadan o'tkazila boshlandi. Yirik inshootlar qurilishining maydoni 250-500 gektarni tashkil etadi. Transport vositalari uchun me'yor bo'yicha bir tomonlama harakat qiladigan yo'lining kengligi esa 6 metr bo'lishi kerak. Transport vositalari qaytadigan yo'lining

radiusi 10 metr va boshqa katta hajmli avtomobillar uchun 12 metrdan kam bo'lmashligi lozim.

Qurilish jarayonini tashkil etish talablari quyidagilardan iborat:

- * yonma-yon qurilish jarayonida istirok etadigan barcha omillarning bir vaqtning o'zida bo'lishi;
- * tejash- qurilish jarayonida kerak bo'lmagan harakatlarni va usullarni qisqartirish. Masalan: ishchilar soni, mashina va mexanizmlar, asbob – uskunalar va h.k;
- * uzluksizlik – qurilish jarayoni ishtirokchilarining vaqt bo'yicha uzluksiz tartibda o'z vazifasini bajarish bilan baholanadi. Buni ta'minlashni ish unumdorligining oshishiga olib keladi;
- * rejalashtirmoq va ogohlantirmoq – bunda asosiy va qo'shimcha ishlarni qat'iy tartibini va vaqtini belgilaydi;
- * ishchi va uning harakatlanishiga qulay holat- bu mehnat fiziologiyasi qonuniyatlariga asoslanadi;
- * ishchining bajaradigan ishga muvofiq kelishi – bu ishchining ruhiy, malakaviy, kasbiy bilimlari bo'yicha bajaradigan ish tartibiga mos kelishidir. Amaliyotda kasbiga mehr qo'yish degan ibora ishlatiladi. U ayni yuqoridagi talabdan kelib chiqib qo'llaniladigan tushuncha;
- * mehnat tezligining eng qulayligi – bu birlik bajariladigan ishga eng kam aqliy va jismoniy sarfini ishlatish bilan erishiladi, mahsulot yetishtiradi.

Qurilishga maydon tanlash bo'yicha quyidagilarga ahamiyat berilishi lozim:

- * tabiiy (topografik, geologic, iqlim) sharoiti;
- * transport sharoiti;

- * ishlab chiqarish bilan asosiy va texnologik bog'lanish;
- * qurilish uchun yaroqli yer maydoni tanlanishi;
- * qurilish maydonining baland pastliklari, geologic va gidrologik suv va energiya ta'minoti;
- * qurilish maydonini magistral transport yo'llari bilan bog'lovchi yo'llar mavjudligi;
- * qurilish mumkin bo'lgan binoning rivojlanishi va istiqboli.

Binoning ekologik xavfsizligi

Aholining yashashi uchun ekologik xavfsizlikning mezonlaridan kelib chiqib, uy-joylarda har jihatdan qulay mikroiklimni ta'minlanishi arxitektura qurilish loyihalashda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Binolarning ichki muhitida har jihatdan qulay mikroiklimni ta'minlanishi bilan bir qatorda binoning qurilishi chegarasida ham har jihatdan qulay mikroiklim tartibini saqlash lozim.

Mikroiklim ostida turar joy binolarining ichki muhitlari hisobga olingan holda qurilish maydonlarida shakllanadigan o'ziga xos iqlim sharoitini tushunish lozim.

2015 yilda muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Abdug'aniyevich ham Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida belgilab berilgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni bajarilishiga qaratilib, ekologik muvozanatni saqlash va aholi salomatligi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha ishlar amalga oshirgan.

Xususan, **atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida normativ-huquqiy hujjatlar ba'zasini takomillashtirish va rivojlantirish va takomillashtirish sohasida:** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasining qo'mitalari bilan

hamkorlikda 4 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, 2 ta yangi taxrirdagi qonun loyihalari ustida ishlendi. Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan 2013 yil O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun jamoatchilikni jalb etish va nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, mamlakatimizning har bir fuqarosini atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasiga doir muhim jarayonlarda ishtirok etishdek huquqini mustahkamladi.

XULOSA

Mustaqillik yillarida boy tarix va merosimiz, ko'xna urf-odat va an'analarimizning qayta tiklanganligi, bugungi kunda mehr-oqibat, bag'ri kenglik, xamjihatlik kabi ezgu faoliyatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga uyg'un bo'lib yashashxayotimiz qoidasiga aylanib bormoqda. Bu ulkan ijobiy ishlarning kata qismi kelajagimiz bo'lgan yoshlarga keng yo'l ochib berilayotganligiga dalolatdir. Me'moriy –konstruktiv yechimlarda binoning mustahkamligi va dizayn yechimlariga alohida e'tibor berildi. Tashqi qiyofasi zamonaviy hi-tech, minimalizm uslubini o'zida mujassam etgan loyiha aks ettirilgan. Loyiha ishlarini amalga oshirishda kerakli o'quv qo'llanma va chet el arxitekturasiga oid adabiyotlardan keng foydalanildi. Rahbarlar bilan fikrlashib kerakli ko'rsatmalar asosida loyiha ishlari amalga oshirildi. Planshetga binoning xolat tarxi, old va orqa tarzlari, qirqimi, binoning har tomondan olingan rasmlari hamda interyer rasmlari aks ettirilgan.

Biz, qiyin va mas'uliyatli bo'lishiga qaramasdan aynan shu diplom mavzusini tanlashimizdan asosiy maqsad, inson deb atalmish buyuk mavjudodga qaysidir jihatdan uzoq va samarali umr kechirishiga, o'z imkoniyatlarini yana bir bor ochishiga umid berish, qo'llab quvvatlashdan iborat. Yaqinlaridan ajralgan, ko'ngli yarim insonlarni jamiyatdan ajratib qo'ymaslikga o'z xissamni qo'shayotganimdan

bag'oyat mamnunman. Bugungi kunda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning bolalar va kattalar salomatligiga alohida e'tibor qaratayotganlari, bunday savobli ishlarni amalga oshirishimizda bizga katta turtki bo'ladi.

Mana shu diplom loyihamiz davomida juda ham ko'p borada jumladan arxitektura, dizayn, landshaft, atrof-muhit ekologiyasi, salomatlik sohalarida bilimlarimizni mustahkamladik, kengaytirdik. Dunyo qarashimizni qaysidir ma'noda o'zgardi desam mubolag'a bo'lmaydi. Bunda bizga ko'maklashgan barcha raxbarlarimizga katta minnatdorchilik bildiramiz. Kelajakda albatta bundanda samarali loyihalarni yurtdoshlarimizga taqdim etishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HAKAKATLAR STRATEGIYASI to'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenting Farmoni.
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent : O'zbekiston, 2016
3. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4. Shavkat Mirziyoyev «Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz» – Toshkent: : "O'zbekiston", 2017.
5. Sattorov Z.M., Ixanova SH.Z., Choriev I.X. Shirokaya utilizatsiya otxodov v proizvodstve stroitel'nix materialov trebuet resheniya nauchno-texnicheskix problem. // Arxitektura ta'limi va innovatsiya. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. // Toshkent, TAQI, 30 mart 2015 y. 23–28 b.

6. Sattorov Z.M. Metodi nanotexnologiy otkrivayut novie puti resheniyaproblem oxrani okrujayushey sredi.// Obrazovanie, nauka i innovatsii. Duxovno-prosvetitel'skiy i nauchno-metodicheskiy jurnal. // №2/2015, Tashkent, 2015 g.– 21–24 s.
7. Sattorov Z.M., Akbarov D.B. Poluchenie ekologicheskix stroitel'nix materialov na osnove sel'skogo xozyaystva. // Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida intellektual salohiyatli yoshlar – mamlakat taraqqiyotining muhim omili. XIII respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. II-qism. // Samarqand, SamDAQI, 29-30 aprel`2016y. – 31–34 b.
8. Sattorov Z.M., Maxamadjonov J.A. Ekologicheskie trebovaniya k arxitekturno-planirovochnim resheniyam jilix zdaniy. // Muhandislik kommunikatsiya tizimlarini loyihalash, qurish va foydalanishning zamonaviy masalalari. OTM miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman maqolalari to'plami. II-qism. // Toshkent, TAQI, 2 mart 2017 y. – 155–157 b.
9. Sattorov Z.M., Muxidov SH.A. Utilizatsiya otxodov na stroitel'nix ploshadkax.//Arxitektura – qurilish fani va davr XXIII an'anaviy konferentsiya materiallari // Toshkent, TAQI, 5 – 10 may 2014 y. 167–169 b.
10. Matniyazov Z.E. Kompozitsiya asoslari 2014 o'quv qo'llanma.
11. Muhamadiyev S. Rangshunoslik SamDAQI 2009 o'quv qo'llanma.
12. Михайлов С.М., Кулеева Л.М. "Основы дизайна" дарслик.
13. Крижановская Н.Я. "Основы ландшафтного дизайна" 2005 o'quv qo'llanma.
14. T.A. Xidoyatov, S.A. Kadirova, Y.I. Abdurahmonov " Zamonaviy jihozlash va interyer " 2012 o'quv qo'llanma.
15. Saidov A.A. " Turar joy binolari va mehmonxonalar interyeri" o'quv qo'llanma.

16. GESTALTUNG UND FORMENLEHRE. Vorkurs am Bauhaus und spaeter. 2001. Johannes Itten © 1963 und 1975 by Verlagsgruppe Dornier GmbH, Stuttgart. ISBN 5-94056-009-1
17. The Non-Designers Design Book. by Robin Williams 2004. ISBN: cl-321-19385-7
18. Geometry of Design: Studies in Proportion and Composition. 2001. ISBN 978-1568982496
19. 101 Things I Learned in Architecture School. MatthewFrederick. 2007. ISBN 978-0262062664
20. GRAPHIC DESIGN THINKING: BEYOND BRAINSTORMING. Ellen Lupton, 2011. ISBN 978-1568989792
21. Zentangle Untangled. Inspiration and Prompts for Meditative Drawingby KASS HALL. ISBN-13: 978-1-4403-1826-9

Me'yoriy hujjatlar:

1. QMQ 2.08. 02-09. "Jamoat binolari va inshootlari"
2. QMQ 2.03. 10-95. "Tomlar va tomqoplamalar"
3. QMQ 2.01.03-96. "Zilzilaviy hududlarda qurilish.
4. QMQ 2. 07. 01-94 "Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy, geologik ma'lumotlar"

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.davarx.uz
3. www.pinterest.com

4. www.wikipedia.org

ТАСИ-АФ-кафедра «ЛДИ»

ОТЗЫВ

На дипломный проект Косимов Умузбек Ортизамуллаевич
Поступившего на АФ ТАСИ в 2014 году и окончив 4 полный курс
бакалавра

в 2018 году. Дипломный проект бакалавра каф. «Ландшафтный дизайн и
интерьер» выполнен на тему: Поселенческие коридоры на территории
Бомбейского государственного университета, Индия

Во время работы над дипломным проектом выпускник _____

Проявил себя инициативным, самостоятельным
в выполнении работ

Дипломный проект выполнен _____

Дипломная работа
Батжаргалов Батбаяр
на тему

Кафедра «ЛДИ» оценивает работу выпускника _____

Над дипломным проектом баллом 4,0

Зав.каф. «ЛДИ»

Руководитель ДП



Матниязов З.Э.

Бакаева З.М.